

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI

ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК

REVIEW OF LAW SCIENCES

huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

правовой научно-практический журнал

legal scientific-practical journal

2023-yil 4-son

VOLUME 7 / ISSUE 4 / 2023

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS.2023.7.4.

ISSN 2181-919X

E-ISSN 2181-1148

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS



Crossref
Content
Registration

MUNDARIJA

12.00.01 – DAVLAT VA HUQUQ NAZARIYASI VA TARIXI. HUQUQIY TA'LIMOTLAR TARIXI

- 5 **AXMEDSHAYEVA MAVLYUDA AXATOVNA**
Hokimiyatlar bo'linishi nazariyasi va uning
shakllanishiga doir ayrim nazariy masalalar

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ. MA'MURIY HUQUQ. MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

- 17 **ТУЛЬТЕЕВ ИЛЬЯС ТАВАСОВИЧ**
Послание Президента страны к народу и
Олий Мажлису: конституционно-правовой
анализ
- 26 **YAKUBOV SHUXRAT UMMATALIYEVICH**
Oliy ta'lim transformatsiyasi: YUNESKOning
"Oliy ta'limga oid malakalarni tan olish
to'g'risida"gi Global konvensiyasini ratifikatsiya
qilish zarurati
- 35 **АЛИМУХАМЕДОВ СУХРОБ
АЙБЕКОВИЧ**
Децентрализация системы государственного
управления в унитарных и федеративных
государствах: сравнительно-правовой анализ
- 49 **YULDOSHBEKOV AVAZBEK
ALISHER O'G'LI**
Soliq maslahati tushunchasining nazariy-huquqiy
jihatlari

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI. TADBIRKORLIK HUQUQI. OILA HUQUQI. XALQARO XUSUSIY HUQUQ

- 58 **ГУЛЯМОВ САИД САИДАХРАРОВИЧ
РУСТАМБЕКОВ ИСЛАМБЕК
РУСТАМБЕКОВИЧ**
Реформирование основ сравнительного
правоведения в цифровую эру: новые
принципы и подходы

- 85 **БАЛТАБАЕВА ЖИБЕК БАУЫРЖАНОВНА**
Улучшение системы взыскания алиментов
в Казахстане: проблемы и перспективы

- 94 **ГАФФОРОВ МЕХРАНГИЗ ШАВКАТОВИЧ**
Гражданско-правовые способы защиты
слабой стороны договора

12.00.08 – JINOYAT HUQUQI. HUQUQBUZARLIKLARNING OLDINI OLISH. KRIMINOLOGIYA. JINOYAT-IJROIYA HUQUQI

- 107 **CHORIYEV ANVAR QO'ZIYEVICH**
Qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holatlar
shaxs huquq va erkinliklarini suddan tashqari
himoya qilish shakllari sifatida

12.00.09 – JINOYAT PROTSESSI. KRIMINALISTIKA, TEZKOR-QIDIRUV HUQUQ VA SUD EKSPERTIZASI

- 116 **MAXMADIYAROVA XUMORA O'KTAMOVNA**
Jinoyat ishini sudda ko'rish uchun tayyorlash
bosqichida taraflar tortishuvini ta'minlash

- 122 **OLIMOV BEKMIRZA TUXTAPULATOVICH**
Ekspertiza tayinlash va o'tkazishda shaxs
huquqlarini ta'minlash

12.00.10 – XALQARO HUQUQ

- 129 **БАЛЕЕВ АРТУР МАХМУДОВИЧ**
Правовое регулирование агентской
деятельности в Республике Узбекистан

13.00.02 – TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI VA METODIKASI (SOHALAR BO'YICHA)

- 138 **GULYAMOVA GULNORA YAKUBOVNA**
TURABAYEVA LAZZAT KALIKULOVNA
Ta'limda innovatsion texnologiyalar

- 146 **НИЯЗОВА НАСИБА ЖУРАБЕКОВНА**
Правовое регулирование статуса языка и
особенности его использования в различных
источниках права

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.rols.2023.7.4./CBTB5436>
UDC: 342.5(045)(575.1)

HOKIMIYATLAR BO'LINISHI NAZARIYASI VA UNING SHAKLLANISHIGA DOIR AYRIM NAZARIY MASALALAR

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna,

Toshkent davlat yuridik universiteti
Davlat va huquq nazariyasi kafedrası professori,
yuridik fanlar doktori
ORCID: 0000-0003-3719-6599
e-mail: mavludaahmedshaeva@gmail.com

Annotatsiya. *Hokimiyatlarning bo'linishi prinsipi davlat hokimiyatining o'z manbasiga ko'ra bir xil bo'lgan uchta o'zaro mustaqil tarmoqqa bo'linishini nazarda tutadi. Davlat hokimiyatining har bir tarmog'i davlat faoliyatining muhim yo'nalishi uchun mas'ul bo'lib, shu bilan birga, hokimiyatning boshqa bo'g'inlarining o'z vakolatlari doirasidagi faoliyati ustidan nazoratni amalga oshiradi. Bunday nazorat "bir-birini cheklab, muvozanatda ushlab turish" mexanizmi orqali ta'minlanadi. Shu munosabat bilan hokimiyatlar bo'linishi nazariyasining shakllanish tarixiga oid ayrim nazariy masalalarni tahlil etish ushbu prinsipning mazmun va mohiyatini to'g'ri tushunish, uning samarali davlat hokimiyatini tashkil etishdagi rolini aniqlashga xizmat qiladi. Binobarin, hokimiyatlar bo'linishi nazariyasining mazmunini tashkil etuvchi dastlabki g'oyalar qadimgi dunyo siyosiy-huquqiy tafakkurida vujudga kelgan bo'lib, u asrlar davomida sayqallanib, keyinchalik yaxlit nazariyaga aylangan. J. Lokk va Sh. Monteskyo mazkur nazariyaning asoschilari sifatida tan olingan. Garchi ushbu nazariya yaratilib, u prinsip sifatida davlat hokimiyatini tashkil etishda qo'llanib kelayotganiga qaramay, ilmiy manbalarda mazkur prinsipning shakllanishi, uning mazmuni va ahamiyati haqida bahslar tugamaydi, qarashlar hatto bir-birini inkor etishgacha yetib boradi. Maqolada ushbu masalalarning ayrim jihatlarini davlat va huquq nazariyasi nuqtayi nazaridan tahlil etiladi.*

Kalit so'zlar: *hokimiyat, davlat hokimiyati, qonun chiqaruvchi hokimiyat, ijro etuvchi hokimiyat, sud hokimiyati, "bir-birini chegaralab, muvozanatda ushlab turish" mexanizmi, hokimiyatlar bo'linishi nazariyasi, hokimiyatlar bo'linishi prinsipi, "vakolatlangan qonunchilik", hokimiyatning suiiste'mol qilinishi.*

ТЕОРИЯ РАЗДЕЛЕНИЯ ВЛАСТЕЙ И НЕКОТОРЫЕ ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ВОПРОСЫ ЕЁ ФОРМИРОВАНИЯ

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна,

доктор юридических наук,
профессор кафедры «Теория государства и права»
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. *Принцип разделения властей предполагает деление единой по своему источнику государственной власти на три взаимно независимые ветви. Каждая из ветвей власти отвечает за важную область государственной деятельности и при этом осуществляет контроль над ведением деятельности в рамках своих полномочий других ветвей власти, что обеспечивается механизмом сдержек и противовесов. В связи с этим анализ некоторых теоретических во-*

просов, связанных с историей становления и развития теории разделения властей, послужит правильному пониманию содержания и сущности данного принципа, определению его места в организации эффективной государственной власти. Следовательно, первоначальные идеи, составляющие ядро теории разделения властей, появились в политико-правовой мысли Древнего мира, которая на протяжении веков уточнялась, а позднее сформировалась в единую теорию. Основателями данной теории признаны Дж. Локк и Ш. Монтескье. Несмотря на то, что эта теория была создана достаточно давно и уже устоялась как принцип организации государственной власти, споры о формировании данного принципа, его содержания и значения в научных кругах не прекращаются, взгляды достаточно противоречивы. В статье анализируются некоторые аспекты данных вопросов с точки зрения теории государства и права.

Ключевые слова: власть, государственная власть, законодательная власть, исполнительная власть, судебная власть, механизм сдержек и противовесов, теория разделения властей, принцип разделения властей, делегированное законодательство, злоупотребление властью.

THE THEORY OF SEPARATION OF POWERS AND SOME THEORETICAL ISSUES OF ITS FORMATION

Akhmedshayeva Mavlyuda Akhatovna,

Taskent State University of Law,
Professor of the Department "Theory of State and Law",
Doctor of Law

Abstract. The principle of separation of powers implies the division of state power, which is unified by its source, into three mutually independent branches. Each of the branches of power is responsible for an important area of state activity and, at the same time, exercises control over the conduct of activities within the authority of other branches of power, which is ensured by the mechanism of "checks and balances." In this regard, the analysis of some theoretical issues related to the history of the formation and development of the theory of separation of powers will serve to proper understanding of the content and essence of this principle and determine its place in the organization of effective state power. Consequently, the original ideas that form the core of the theory of separation of powers appeared in the political and legal thought of the ancient world, which was refined over the centuries and later formed into a unified theory. John Locke and Montesquieu are recognized as the founders of this theory. Despite the fact that this theory was created quite a long time ago and has already been established as a principle of the formation of state power, disputes about the origin of this principle, its content, and its meaning in scientific communities do not stop; the views are quite contradictory. The article analyzes some aspects of these issues from the point of view of the theory of state and law.

Keywords: power, state power, legislative power, executive power, judicial power, checks and balances, theory of separation of powers, principle of separation of powers, "delegated legislation," abuse of power.

Kirish

O'zbekistonning yangilangan Konstitutsiyasining 1-moddasi birinchi qismida "O'zbekiston – boshqaruvning respublika shakliga ega bo'lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat" deb mustahkamlab qo'yilishi – xalqimizning ulug' maqsadi – huquqiy davlat barpo etish

yo'lidagi sa'y-harakatlariga munosib konstitutsiyaviy huquqiy asos bo'lib xizmat qilishi shubhasizdir. Ta'kidlash joizki, huquqiy davlat qurishning muhim sharti – Konstitutsiyamizning 11-moddasida mustahkamlab qo'yilgan davlat hokimiyatining uch tarmoqqa bo'linishidir. Jahonda nufuzli hisoblangan Britanika ensiklopediyasida yozilganidek,

hokimiyatlar bo'linishi (separation, division) qonun chiqarish, ijro etish va sudlovni amalga oshirish funksiyalarining alohida va mustaqil organlar o'rtasida bo'linishidir. Hokimiyat funksiyalarining bunday bo'linishi hokimiyat suiiste'molliklarining oldini oladi, chunki qonunlarni ishlab chiqish va ularning ijrosini ta'minlash uchun uch hokimiyat tarmog'ining sanksiyasi zarur [1].

Hokimiyatlar bo'linishi haqidagi ilmiy izlanishlarda uning ahamiyati va mohiyati bo'yicha fikrlar ko'pincha bir-biriga yaqin ekanligini kuzatish mumkin. D. Uoldron (AQSh) ham ushbu prinsipning mohiyatini oddiygina ifodalashga erishgan. Uningcha, hokimiyatlar bo'linishi prinsipi siyosiy hokimiyat markazlashuvining oldini olish hamda hokimiyatning turli tarmoqlar yordamida boshqarilishi orqali o'zaro muvozanatni ta'minlashga xizmat qiladi [2, 3].

Milliy yuridik adabiyotda ham ushbu masalaga bag'ishlangan qator ishlar mavjud. Jumladan, R.R. Hakimovning fikricha, davlat hokimiyatining bo'linishi prinsipining mazmuni va mohiyatini lo'nda qilib, quyidagicha ifodalash mumkin: *birinchidan*, davlat hokimiyati bir-biridan mustaqil bo'lgan qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linadi; *ikkinchidan*, davlat hokimiyati bo'linishi hokimiyat tarmoqlarining bir-biridan mutlaqo ajralishi va o'zaro qarama-qarshi turishini anglatmaydi, balki ularning yagona manba – xalq hokimiyatchiligiga asoslanishi, o'zaro hamjihatligi, konstitutsiya va qonunlar doirasida bir-birini tiyib turishi hamda hokimiyat tizimida mutanosiblik va muvozanat saqlashini ifodalaydi; *uchinchidan*, ijro etuvchi hokimiyatning faoliyati qonunosti tusida bo'ladi, ya'ni uning faoliyati va qarorlari qonunga asoslanadi, uning ijrosini ta'minlashga yo'naltiriladi va qonunga zid bo'lishi mumkin emas; *to'rtinchidan*, sud hokimiyati faqat konstitutsiya va qonunga bo'ysunadi, uni ijro etuvchi hokimiyat qarorlariga bo'ysundirish yaramaydi va faqat sud hokimiyatigina huquq haqidagi nizolarni hal

etib, odil sudlovni amalga oshiradi; *beshinchidan*, bir shaxs bir necha hokimiyat organida ishlashi mumkin emas (parlamentlik boshqaruv shakliga asoslangan davlatlar bundan mustasno) [4].

Binobarin, prof. X. Odilqoriyevning fikricha, "hokimiyatlar vakolatlarining oqilona taqsimlanishi – davlat tuzilmalarining samarali faoliyat ko'rsatishi va jamiyatda qonuniylik ta'minlanishining garovi" [5].

Shu o'rinda muallif tomonidan "taqsimlanishi" iborasining qo'llanishiga e'tibor qaratish zarur. Binobarin, inglizcha "separation", "division" atamallari, asosan, "bo'linish" ma'nosiga yaqin ekanligini aytib o'tish joiz. Britanikada ham "separation", "division" atamallari ishlatilgan. Ruscha "разделение" so'zi ham "bo'linish" so'zi ma'nosiga yaqin.

Shu munosabat bilan quyidagilar ushbu prinsipning shakllanish tarixi va bugungi kundagi amaliyoti masalasiga e'tibor qaratishning dolzarbligini belgilovchi omillar hisoblanadi:

birinchidan, bugungi kunda deyarli barcha demokratik davlatlarda davlat hokimiyatini tashkil etish hokimiyatlar bo'linishi prinsipining ma'lum bir variantiga asoslanishi;

ikkinchidan, hokimiyatlar bo'linishi nazariyasining tarixi, dastlabki g'oyalar kim tomonidan ilgari surilganligi, asosiy "otalari" kimligi masalasi ilmiy manbalarda munozara va muhokama obyekti bo'lishda davom etayotganligi;

uchinchidan, mazkur nazariyaning mazmun-mohiyati, uning davlat va jamiyat hayotida tutgan o'rni masalasida xilma-xil va ayrim hollarda ziddiyatli fikrlar mavjudligi;

to'rtinchidan, davlat hokimiyatini tashkil etishning hokimiyatlar bo'linishi prinsipiga muqobil, samarali va suiiste'molchiliklardan xoli bo'lgan boshqa tashkiliy prinsipning hozircha mavjud emasligi.

Shu bois ushbu prinsipning shakllanishi, rivojlanishi, amaliyotda qo'llanishi yuzasidan ayrim xususiyatlarini tahlil etish ham ilmiy, ham nazariy o'rganish zaruratini kun tartibi-

ga qo'yadi. Bunday tahlil, o'z navbatida, ushbu prinsipning bugungi kundagi real ahamiyati va qadr-qimmatini anglashga yordam beradi.

Material va metodlar

Maqolani yozishda hokimiyatlar bo'linishi, uning nazariyasi va amaliyotining shakllanishiga oid ilmiy yuridik manbalar, xorij va milliy olimlarning fikrlari, qarashlari, munozaralar, shuningdek, davlat hokimiyati va uning tarmoqlari o'rtasidagi o'zaro munosabatning huquqiy asoslariga oid tegishli qonun hujjatlaridan foydalanilgan hamda analiz va sintez, tarixiylik, tizimlilik, mantiqiylik, qiyosiy huquqiy, formal-yuridik metodlar qo'llangan.

Tadqiqot natijalari

Manbalarda ko'rsatilganidek, bundan taxminan besh ming yillar oldin kishilik jamiyati davlatlarga uyushgan holda yashashni boshlagan paytdan buyon har bir davrning olim-u fozillari davlat va davlat hokimiyatining mohiyati, uning kuch-qudrati borasida chuqur mushohada qilishgan. Shu tariqa ular davlat hokimiyatining qudratli kuchga ega ekanligi, shu bois oddiy fuqarolarning haq-huquqlarini ta'minlash uchun uning suiiste'mol qilinishiga yo'l qo'ymaslik zarurligini chuqur anglab yetishgan. Antik dunyo mutafakkirlari hokimiyat suiiste'mol qilinishining oldini olish uchun davlat hokimiyati bir subyekt, ya'ni yakka shaxs yoki bironta organ qo'lida to'planib qolishiga yo'l qo'ymaslik zarur, degan xulosaga kelishgan.

Shu o'rinda aytish joizki, ko'p ilmiy manbalarda huquqiy davlat haqidagi g'oyalar G'arb siyosiy-huquqiy fikriga mansub, degan fikrlar ilgari suriladi. Bunday fikrlar tarixiy haqiqatga to'la mos keladi, deyish qiyin. Chunki, masalan, Alisher Navoiy, Forobiy asarlarida aynan "huquqiy davlat" deb nomlanmasa-da, tenglik va adolatli qonunlarga asoslanib ish ko'radigan saltanatlar haqidagi qarashlarda adolatli davlat va jamiyat haqida fikrlar ilgari surilgan.

An'anaviy tarzda hokimiyatlar bo'linishi g'oyasining zamini sifatida qadimgi Yuno-

niston va qadimgi Rim qayd etiladi. Platon, Arastu va boshqa antik olam mutafakkirlari o'zlari yashab turgan davlat tuzilmalari siyosiy tuzilishi va boshqaruv shakllarini har tomonlama tahlil etish asosida muayyan nazariy, amaliy xulosalarni shakllantirganlar. Ayni paytda hokimiyatlar bo'linishi nazariyasining shakllanishi haqida fikr yuritilayotganda, antik dunyoda bu masalada shakllangan fikrlar zamonaviy hokimiyatlar bo'linishi nazariyasidan ancha uzoq ekanligini ta'kidlash zarur.

Shu bilan birga, antik dunyo mutafakkiri Arastu o'zining mashhur "Siyosat" asarida qadimgi Yunonistonning shahar-davlatlari konstitutsiyaviy formalariga asoslangan holda, birinchi marta "aralash hukumat" yoki "gibrid hukumat" g'oyasini keltirib o'tgan. Ayni paytda ilmiy manbalarda ta'kidlanganidek, Arastuning hokimiyatlar bo'linishi haqidagi fikr-mulohazalari ushbu prinsipning zamonaviy ko'rinishi tushunchasidan ancha farq qilgani tabiiydir. Shu bilan birga, mutafakkirning davlat hokimiyatini chegaralab va barqarorlab turuvchi elementlar, bu masalada keskin yo'l tutishning xavfli ekanligi haqidagi mushohadalari kelgusida mutafakkirlarning ushbu masaladagi qarashlariga so'zsiz ta'sir o'tkazgan [6].

Ta'kidlash joizki, qadimgi dunyo siyosiy-huquqiy fikrlari sarchashmasidan munosib o'rin tutgan bunday g'oyalar ma'lum darajada davlatchilik amaliyotida ham qo'llanganligi bilan ahamiyatlidir. Masalan, Rim Respublikasida Polibiyning iborasiga ko'ra, senat, konsullar va majlis yuqorida qayd etilgan "aralash boshqaruv"ni o'zida ifoda etgan [7]. Aynan Polibiy hatto nafaqat hokimiyatlar bo'linishi, balki ushbu prinsipning asosiy richagi bo'lgan "bir-birini chegaralab turish va muvozanatda ushlash" tizimiga o'xshash tashkiliy mexanizmni Spartada Likurg joriy etishga harakat qilganligi haqida ham batafsil yozib qoldirgan va izohlagan.

Shu bilan birga, ilmiy adabiyotda hokimiyatlar bo'linishi g'oyasining "yoshi" va uning qadimiy manbalarda ifodalanishi borasida

ham turli fikrlar ilgari surilgan. Hatto Bibliyada, Konfutsiy ta'limotida ham bu haqda keltirilgan. Petr Barenboymning "3000 лет доктрины разделения властей. Суд Сютера" nomli asarida sud mustaqilligi prinsipi Bibliyada ifodalanganligi bayon qilingan. Shuningdek, Konfutsiyning "Lun yuya" (Mulohazalar va suhbatlar) nomli mashhur asarida hokimiyatlar bo'linishi g'oyasi va "bir-birini tiyib, muvozanatda ushlab turish" tizimi mexanizmi mavjudligi asoslangan [8].

Ta'kidlash kerakki, hokimiyatlar bo'linishining shakllanishida ham turli qarashlar mavjudligi bu masalaning dolzarbligiga e'tibor qaratish zarurligini taqozo etadi.

Ilmiy manbalarda hokimiyatlar bo'linishining dastlabki kurtaklari qadimgi dunyoda shakllangan. Platondan boshlangan degan ilmiy manbalarda keng tarqalgan fikrni inkor etuvchi olimlar ham yo'q emas. Masalan, V.V. Xramushinning yozishicha, Platon ta'limotida hokimiyatlar bo'linishi nuqtayi nazaridan ideal davlatning turli toifalari o'rtasida mehnat taqsimoti bo'yicha konstruksiyasida, aksincha, hokimiyatlar bo'linishi e'tirof etilmaydi, inkor etiladi [9].

V.S. Nersesyansning fikricha, Arastu Platonga ko'ra aniqroq va muntazamlikda har qanday davlat tuzumida "uch element" bo'lishi, birinchisi, qonunchilik masalalari bo'yicha, ikkinchisi magistratura, uchinchisi esa sud organlari mavjud bo'lishini yozgan. Biroq u ushbu uch elementni hokimiyat tarmoqlari sifatida emas, balki turlicha tashkil etilgan davlat qurilishi shakllari sifatida e'tirof etgan. Boshqacha qilib aytganda, Nersesyans Arastu bu uch shaklni ajratganda, hokimiyatlar bo'linishini nazarda tutmagan, balki davlat qurilishi uchta shaklda tashkil etilishini ta'kidlagan xolos, degan fikrni ilgari suradi [10].

Bu kabi fikrlarni G'arb olimlari tadqiqotlarida ham uchratish mumkin. Masalan, Martin Daymond (Martin Diamond)ning ta'kidicha, hokimiyatlar bo'linishi, bu – zamonaviy ixtiro bo'lib, uning zamonaviyligi uni tushunishda

hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Amerikalik asoschilar ushbu zamonaviylikni yaxshi tushunishgan. Masalan, Gamilton "hokimiyatlar bo'linishi qadimgi dunyoga umuman ma'lum bo'lmagan yoki to'la ma'lum bo'lmagan prinsiplardan biri" deb aytgan [11].

V.G. Paxomov qadimgi dunyoda hokimiyatlar g'oyasi yetarlicha aniq shakllanmagan, degan fikrga qo'shilgan holda, Perikl davridagi quldorlik demokratiyasi yaqqol hokimiyatlar bo'linishiga asoslangan, chunki qonun ijodkorligi faoliyati Xalq majlisiga, ijro etuvchi hokimiyat Bulega, sud hokimiyati esa Geliaga mansub bo'lganligini qanday e'tirof etmaslik mumkin, deb ta'kidlaydi [12].

Hokimiyatlar bo'linishi g'oyasi o'rta asrlarda nazariy jihatdan yanada rivojlantirilib, o'zining yangi sifat darajasiga ega bo'ldi. Ilmiy manbalarda ta'kidlanishicha, o'rta asrlarda ushbu nazariyaning rivojlanishi biroz sust kechgan. Hokimiyatlar bo'linishi g'oyasining shakllanishida ingliz faylasufi Jon Lokkning (1632–1704) qarashlari katta ahamiyatga ega. Uning siyosiy-huquqiy qarashlari, jumladan, davlat boshqaruvi, xususan, hokimiyatlar bo'linishiga oid fikr va xulosalari 1690-yilda chop etilgan "Davlat boshqaruvi haqida ikki traktat" nomli asarida bayon etilgan.

Ta'kidlash lozimki, Lokkning hokimiyatlar bo'linishi g'oyasiga kiritgan yangiligi faqatgina davlat organlarini teng muvozanatda ushlab turish maqsadi bilan cheklanmagan. Uning bu sohadagi fikr-mulohazalari ancha keng mazmunga ega bo'lib, ular Lokkning butun davlat hokimiyatining qaysidir subyekt tomonidan uzurpatsiya qilinishi va davlat hokimiyatidan despotik tarzda foydalanishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida davlat hokimiyatining alohida qismlari o'rtasidagi aloqa va o'zaro harakatning prinsiplarini belgilashda o'z ifodasini topgan.

Lokkning hokimiyatlar bo'linishiga doir qarashlarining o'ziga xosligi uning qonun chiqaruvchi hokimiyatga ustuvor o'rin berganligi bilan tavsiflanadi. Chunki uning talqinida ommaviy-hokimiy faoliyatning tegishli tiplari

iyerarxik – bo'ysunishli – bosqichli tartibda joylashib, ular ichida birinchi o'rin qonun chiqaruvchi hokimiyatga beriladi. Qonun chiqaruvchi hokimiyat mamlakatda yuqori hokimiyat hisoblanadi, biroq u mutlaq hokimiyat emas, albatta.

Ingliz faylasufining ta'kidlashicha, yuqori turuvchi qonun chiqaruvchi hokimiyatga qolgan hokimiyatlar bo'ysunishi kerak. Biroq bundan boshqa hokimiyat tarmoqlari mustaqil bo'lmay, balki qonun chiqaruvchi hokimiyatning sust qo'shimcha tarkiblari ekan, degan xulosaga kelish kerak emas, chunki qonun chiqaruvchi hokimiyatga boshqa hokimiyat tarmoqlari faol ta'sir ko'rsatadi, ayniqsa, ijro hokimiyatining ta'siri katta bo'lishi mumkin [13].

Ta'kidlash o'rinliki, Lokk nafaqat davlat hokimiyatining bo'linishi lozimligini yanada asoslagan, balki bunday bo'linishning tashkiliy-huquqiy shakli, ya'ni hokimiyatlar bo'linishini ta'minlash mexanizmi haqida ham qimmatli fikrlar bildirgan. Lokkning talqinicha, har qanday normal boshqarish tuzilmasi rasmiy ravishda, normativ tarzda mustahkamlangan "bir-birini tiyib turish va bir-biriga basma-bas turish" tizimi yig'indisidan iborat.

O'rta asrlarda hokimiyatlar bo'linishi g'oyasini nazariy jihatdan yanada boyitgan, unga katta hissa qo'shgan allomalar ichida Lokkdan keyingi faxrlı o'rinni Sharl Monteskyo (1689–1775) egallaydi. Sharl Monteskyo nuqtayi nazariga ko'ra, davlatda hokimiyatlar bo'linishining mavjudligi va amal qilishi jamiyatni davlat hokimiyati sohasidagi suiiste'molchiliklardan saqlashi, bevosita despotiyaga olib keladigan hokimiyatning egallanib (uzurpatsiya) olinishi va bir organ yoki bir shaxs qo'lida to'planishi holatining oldini olishi kerak.

Shu maqsadda, o'z mohiyatiga ko'ra, yagona bo'lgan davlat hokimiyati uch hokimiyat tarmog'i – qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati (trias politica) o'rtasida bo'linishi kerak. Har bir hokimiyat tarmog'i

o'zi mas'ul bo'lgan yo'nalishda mustaqil faoliyat olib boradi. Shu bilan birga, har bir hokimiyat tarmog'i, o'z navbatida, boshqasining o'z vakolatlaridan tashqariga chiqib ketmasligini ham nazorat etadi.

Monteskyoning fikricha, hokimiyatlar bo'linishining asosiy maqsadi hokimiyatni suiiste'mol qilishning oldini olishdir. Basharti, qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat bironta shaxs yoki bironta idora qo'lida jamlansa, bu holda jamiyatda erkinlikka o'rin qolmaydi, chunki o'sha monarx yoki senat tiranik xarakteridagi qonunlarni qabul qilishi va ularni tiranik uslubda qo'llay boshlashi mumkinligi xavfi vujudga keladi. Agarda sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro hokimiyatidan ajratilmagan bo'lsa, bu holda ham erkinlik qaror topmaydi. Mabodo sud hokimiyati qonun chiqaruvchi hokimiyat bilan birlashgan bo'lsa, u holda fuqarolarning hayoti va erkinliklari o'zboshimchalik hokimiyati ostida qoladi, chunki sudya qonun chiqaruvchi bo'ladi. Agar sud hokimiyati ijro hokimiyati bilan birlashsa, sudya zulmkor bo'lish imkoniyatiga ega. Agar bir shaxs yoki bir idora qo'lida uch hokimiyat: qonunlarni yaratish hokimiyati, umumdavlat xarakteridagi qarorlarni ijro ettirish hokimiyati hamda jinoyatlar va xususiy shaxslar o'rtasidagi nizolarni sudlash hokimiyati to'plansa, hammasi tamom bo'ladi.

Monteskyoning, yuqorida ham qayd etilganidek, hokimiyatlar bo'linishining tashkiliy-huquqiy kafolatlari mexanizmi borasidagi fikrlari nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham molikdir. Uning fikricha, hokimiyat suiiste'mol qilinishining oldini olish uchun shunday bir tartibot kerakki, bunda turli hokimiyat tarmoqlari bir-birini o'zaro tiyib tura oladigan bo'lishi lozim. Hokimiyatlarning bunday bir-birini o'zaro tiyib turishi ularning qonun doirasida huquqqa muvofiq va mutanosib amal qilishining zaruriy shartidir [14].

Shunday qilib, buyuk fransuz ma'rifatparvari, faylasuf va yurist Sharl Lui Mon-

teskyyo Lokkning hokimiyatlar bo'linishi g'oyasini chuqur tahlil etgan holda, uni nazariy jihatdan yanada rivojlantirib, butunlay yangi bir pog'onaga ko'targan. Shu tariqa XVII–XVIII asrlarda hokimiyatlar bo'linishi to'g'risidagi g'oyalar rivojlantirilib, yaxlit, tugallangan bir ta'limot sifatida shakllandi va o'sha davr siyosiy-huquqiy fikri hamda davlatchilik amaliyotiga katta ijobiy ta'sir eta boshladi.

Tadqiqot natijalari tahlili

Aytish joizki, hokimiyatlar bo'linishi nazariyasi D. Lokk va Sh. Monteskyolar tomonidan yaxlit bir nazariya sifatida shakllantirilgach, bu nazariya o'zining mantiqiy yakunini topgan, degan xulosaga kelish unchalik haqiqatga yaqin bo'lmaydi, chunki bu ikki alomadan keyin ham mazkur nazariyaning rivoji davom etmoqda. Chunki nazariyaning qanchalik hayotbaxsh ekanligi darajasi uning amaliyotda qo'llanishi va erishilgan samara orqali belgilanadi. Shu ma'noda hokimiyatlar bo'linishi nazariyasi ham nazariy, ham amaliy jihatdan mantiqiy rivojlanish va sayqallanishni boshdan kechirib kelmoqda deyish mumkin.

Biroq Lokk va Monteskyoning buyuk xizmatlari shundaki, ular bu nazariyaning bosh, asosiy va mohiyatliy qoidalarini ishlab chiqishgan. Keyinchalik ham bu nazariyaning boshqacha talqin qilinish hollari mavjud bo'lgan. Masalan, buyuk nemis faylasufi Immanuel Kant hokimiyatlar bo'linishi nazariyasi, uch tarmoq hokimiyatining teng bo'lishi haqidagi g'oyalarni unchalik qo'llab-quvvatlamagan. Monteskyoning hokimiyatlar bo'linishi g'oyasini Kant "hokimiyatlar muvozanati" sifatida talqin etmagan. Uning fikricha, har qanday davlat uch hokimiyatga bo'linadi: qonun chiqaruvchi (faqat suveren "xalqning jamoaviy irodasi" gagina mansub bo'lgan), ijro etuvchi (qonuniy hukmdor qo'lida to'plangan va oliy qonunchilik hokimiyatiga bo'ysunadigan) va sud hokimiyati (ijro etuvchi hokimiyat tomonidan tayinlanadigan). Ushbu uch hokimiyatning o'zaro

subordinatsiyasi va kelishuvi despotizmning oldini oladi hamda davlat farovonligini ta'minlab beradi [15]. Mazkur fikrda e'tibor qaratadigan ikki jihat mavjud: *birinchidan*, I. Kant ham Lokk kabi qonun chiqaruvchi hokimiyatni qolgan tarmoqlardan yuqori qo'yadi; *ikkinchidan*, uch hokimiyat tarmog'i o'rtasida subordinatsiya va kelishuv bo'lishi zarurligini ta'kidlaydi. Shu o'rinda, agarda bir hokimiyat tarmog'i ikkinchisiga bo'ysunishi kerak bo'lsa, bu holda ular o'rtasida "kelishuv" bo'lishi mantiqan qanday amalga oshiriladi, degan savol tug'iladi. Kantning bunday fikri, albatta, o'zi yashab turgan davr hokimiyati xususiyatlari bilan bog'liq holda shakllanganligi, shubhasiz.

Hokimiyatlar bo'linishi g'oyasi Yevropadagi mutlaqlik, ya'ni mutlaq monarxiya hukmronligi sharoitida ham amalga oshishi mushkul edi, chunki monarx – qirol o'z qo'lida butun hokimiyat tizginini ushlab tutar edi. Shu bois ham hokimiyatlar bo'linishi nazariyasi kishilik jamiyati taraqqiyotining shunday bir davrida yaxlit va tugal nazariya sifatida shakllanib, hayotga tatbiq etila boshladiki, qachonki "jamiyatdagi keng qatlamlarning ijtimoiy-siyosiy hayotda va mamlakatdagi siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etishi uchun barcha zaruriy zaminlar pishib yetilgan, hech bo'lmaganda, rasman siyosiy va mafkuraviy plyuralizm tantana qilgan, jamiyatning intellektual qatlamlari orasida fuqaro va grajdanlarning huquq va erkinliklarining ishonchli kafolatlarini vujudga keltirishning yo'l va vositalari qattiq izlanayotgan, davlat hokimiyatining alohida shaxslar yoki davlatning alohida organi tomonidan egallab olinishi ehtimolidan fuqarolar va ular bilan birga jamiyat va davlatni soqit qilishga harakat qilinayotgan bo'lishi lozim" [16].

Shu bois ham Jon Lokk va Sharl Monteskyolar tomonidan hokimiyatlar bo'linishi nazariyasining ishlab chiqilishi Yevropadagi aynan yuqorida qayd etilgan xususiyatlarga ega bo'lgan davrga to'g'ri kelganligi ham bejiz emas, albatta. XVII asr oxirida "sha-

raflari inqiloblar” davridagi Angliya va XVIII asr o’rtalaridagi inqilobiy kayfiyatlar avjga mingan paytdagi Fransiya bu nazariyaning shakllanishiga ijtimoiy-siyosiy zamin bo’lib xizmat qildi.

Amerika Qo’shma Shtatlarini hokimiyatlar bo’linishi nazariyasini konstitutsiyaviy amaliyotda qo’llagan dastlabki davlat sifatida ko’rsatish mumkin. T. Peyn, T. Jefferson, A. Gamilton, D. Medisonlar nafaqat hokimiyatlar bo’linishi doktrinasi, balki uning konstitutsiyaviy-huquqiy amaliyotiga ham katta hissa qo’shishgan.

AQShning 1787-yilgi Konstitutsiyasida davlatning oliy hokimiyat organlarini tashkil etish, ularning kompetensiyasi va o’zaro munosabatining asoslari hokimiyatlar bo’linishi prinsipiga tayanishi mustahkamlangan. Shunday qilib, dastlabki tarzda hokimiyatlar bo’linishi prinsipi davlat hokimiyatini tashkil etishning asosiga qo’yilgan. Shu tariqa hokimiyatlar bo’linishi nazariyasi ilk bor to’laligicha davlatchilik amaliyotiga tatbiq etila boshlagan. Biroq AQSh davlat hokimiyati tuzilishiga asos qilib olingan hokimiyatlar bo’linishi prinsipi D. Lokk va Sh. Monteskyo-larning hokimiyatlar bo’linishi nazariyasi-ning aynan o’zi bo’lmay, balki AQShning o’z tajribasini e’tiborga olgan holda shakllangan hokimiyatlar bo’linishining amerikacha varianti bo’lgan. Konstitutsiya mualliflari hokimiyatning yaxlit va yagona ekanligini yaxshi anglab yetganlar va shunga asoslanib, uchta bir-biridan mustaqil hokimiyat tarmoqlarini emas, balki yagona davlat hokimiyatining uch tarmog’i, ya’ni qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlarini nazarda tutishgan. AQSh Konstitutsiyasining “otalari” uch hokimiyat tarmog’idan birontasi o’z qo’lida hokimiyatni jamlab, tiraniya rejimini o’rnatishlari xavfining oldini olish maqsadida shu joyning o’zida “bir-birini tiyib turish va muvozanatda ushlab” tizimini ham belgilashgan.

Hokimiyat tarmoqlarining “bir-birini tiyib turish va muvozanatda ushlab” prinsipi nazariy jihatdan yanada rivojlantirgan

va uni amaliyotga tatbiq etishga katta hissa qo’shgan davlat arbobi, ikki marta AQSh Prezidenti bo’lgan Jeyms Medison (1751–1836) hisoblanadi. Medisonning xizmati shundaki, u bir-birini tiyib va muvozanatda ushlab turish tizimining shunday bir mexanizmini ishlab chiqqanki, unga ko’ra, hokimiyatning har bir tarmog’i nisbatan tengdir. Medisoncha bir-birini tiyish va muvozanatda bo’lish prinsipi hokimiyat uch tarmog’i vakolatlarining qisman bir-biriga mos kelishini taqozo etadi.

Shu bilan birga, AQShda hokimiyatlar bo’linishi prinsipi amaliyoti muayyan tashkiliy qiyinchiliklarsiz kechmaganini ham ta’kidlash zarur.

Bundan tashqari, ijro hokimiyati bilan sud hokimiyati o’rtasida hokimiy vakolatlar muvozanati masalasida ayrim nizolar vujudga kelishi holatlari ko’rsatib o’tiladi. Masalan, Tomas Merrill o’zining “The Constitutional Principle of Separation of Powers” nomli maqolasida AQSh Oliy sudi davlat hokimiyati tarmoqlari o’rtasidagi nizolarni hal etishiga to’g’ri kelayotganligi, bunda sud nizolarni hal etishda bir-biridan farq qiluvchi ikki konsepsiyani, ya’ni bir tomondan, imkon qadar hokimiyat tarmoqlari o’zlariga yuklatilgan vazifalarni mas’uliyatli bajarishi, ikkinchi tomondan esa hokimiyat tarmoqlari mutlaq mustaqil bo’la olmasligi, shu bois qanchalik mumkin bo’lsa, shunchalik o’zaro muvozanatini ta’minlash zarur ekanligiga asoslangan hamda mavjud vaziyat va sharoitdan kelib chiqqan holda, tegishli yondashuvni qo’llayotganini ta’kidlab o’tgan [17].

Ronald L. Pratt o’zining “Alexander Hamilton: The separation of powers” deb nomlangan maqolasida Hamiltonning hokimiyatlar bo’linishiga oid qarashlarini tahlil etib, Irangeyt, Uotergeyt voqealariga bog’liq holda, Prezident boshchiligidagi ijro hokimiyatining vakolatlari, uni cheklash masalalarini hokimiyatlar bo’linishi konstitutsiyaviy prinsipi asnosida o’rgangan. Muallifning fikricha, Irangeyt, Uotergeyt voqealari ijro etuvchi ho-

kimiyatning vakolatlari aniq-tiniq cheklani-shi hamda uning xalqaro munosabatlarga oid faoliyatida maxfiylik kamayishi zarurligini ko'rsatadi [18].

Jon Feyrli o'zining "The Separation of Powers" nomli maqolasida ta'kidlaganidek, aslida, garchi Amerika konstitutsiyalari-da hokimiyatlar bo'linishi prinsipi jiddiy, ba'zan esa juda qat'iy belgilab qo'yilgan bo'lsa-da, ayni paytda hokimiyatlar bo'linishi prinsipidan u yoki bu istisnolarni nazarda tutmagan bironta ham konstitutsiya mavjud emas. Shu tariqa ushbu nazariyani tekshirib ko'rish uchun asos bo'ladigan uch hokimiyat tarmog'ining nufuzli maqbul ta'rifini topish ham qiyin masala. Shu bilan birga, ko'pincha bir hokimiyat tarmog'i ikkinchisining funksiyasiga o'xshash funksiyani bajarishini ko'rish mumkin. Shu tariqa ijro etuvchi hokimiyatning vakolatiga kiradigan lavozimga tayinlash funksiyasida qonun chiqaruvchi hokimiyatning biron-bir palatasi, ba'zan esa yaxlit qonun chiqaruvchi organ muayyan lavozimlarni saylaydi. Qonun chiqaruvchi organga berilgan impeachment bo'yicha vakolatlar mohiyatan sof sud shakliga ega [19].

Hokimiyatlar bo'linishi haqida fikr yuritishda uning rivojlanish bosqichlariga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq. Ilmiy adabiyotlarda hokimiyatlar bo'linishi nazariyasining shakllanishi jarayonini mazmunan uch fazaga bo'lish mavjud:

- birinchi fazada jamiyat taraqqiyoti tarixining shunday bir ijtimoiy vaziyat va dunyo-qarashlar zamini vujudga keldiki, shu asnoda hokimiyatlar bo'linishi konsepsiyasi va uning tarkibiy elementlari shakllanishiga imkon va sharoit tug'ildi;

- ikkinchi faza - bevosita hokimiyatlar bo'linishi konsepsiyasining vujudga kelishi, uning alohida qismlarining shakllanishi va bu qismlarning uyg'unlashgan holda yaxlitlanishi;

- uchinchi faza, ya'ni hokimiyatlar bo'linishi konsepsiyasi shakllanish jarayoni-

ning bu bosqichida mazkur nazariya asosiy qoidalarining hayotga tatbiq etilishi natijasida to'plangan amaliy tajribadan kelib chiqqan holda, bu nazariyaga dastlabki korreksiyalarining kiritilishi.

Shu munosabat bilan hokimiyatlar bo'linishi nazariyasining shakllanish jarayonining har bir bosqichi qaysi davrlarni o'z ichiga olganligi haqidagi masalaning nazariy-ilmiy ahamiyatga molikligi, shubhasizdir.

Biroq hokimiyatlar bo'linishi jarayoni fazalari qancha vaqt va davrni olganligi haqida olimlar o'rtasida umumiy fikr yo'q. Ko'pchilik tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, hokimiyatlar bo'linishi nazariyasining birinchi fazasi XVI asrdan to XVII asrning ikkinchi yarmigacha bo'lgan davrni o'z ichiga olsa, ikkinchi, asosiy fazasi esa XVII asrning ikkinchi yarmidan to XVIII asrning yarmigacha bo'lgan davrni, uchinchi, yakunlovchi faza – XVIII asr o'rtalaridan to XIX asrning yarmigacha bo'lgan davrlarni qamrab olgan [16].

Fikrimizcha, ushbu davrlardan keyin o'tgan vaqt, ya'ni XIX asrning yarmidan to bugungi kungacha ushbu nazariya va prinsip muayyan rivojlanish, takomillashishda "sinov" davrini boshdan kechirdi, deyish mumkin.

Ilmiy adabiyotlarda hokimiyatlar bo'linishining amerika modeli boshqa davlatlar uchun namuna rolini o'tashi mumkinmi, degan savol muhokamalarga sabab bo'lib kelmoqda. Nima uchun aynan amerika modeli degan savolga javoban aytish mumkin-ki, ushbu nazariya amaliyoti dastlab AQShda qo'llangan.

Bundan tashqari, bu davlatning boshqaruv shakli prezidentlik respublikasiga asoslangan bo'lib, bu tizim hokimiyatlar bo'linishi uchun juda mos "zamin" hisoblanadi.

Ayrim olimlar amerika modelining boshqa davlatlar uchun namuna sifatida xizmat qilishiga e'tiroz bildirishadi. Masalan, Bryus Akkerman o'zining "The new separation of powers" nomli maqolasida amerika tizimining eksport qilinishiga qarshi chiqib,

uning o'rniga Germaniya, Italiya, Yaponiya, Hindiston, Kanada, Janubiy Afrika va boshqa ko'plab mamlakatlar konstitutsiyaviy amaliyotiga asoslangan yondashuvni yoqlaydi [20]. "Cheklangan parlamentarizm" modeliga muvofiq, konstitutsiya butun xalq tomonidan saylangan kongressni "tiyib, muvozanatda ushlaydigan", mustaqil saylandigan prezidentni yaratmasligi lozim. Uning o'rniga prezident Bosh vazir va uning kabinetini demokratik saylangan deputatlar palatasi qancha vaqt qo'llasa, shuncha vaqt boshqaruv tepasida qolishiga imkon berishi kerakligini ta'kidlaydi. Ayni paytda ilmiy adabiyotlarda hozirgi zamon hokimiyatlar bo'linishi prinsipi amaliyotining ma'lum jihatlari salbiy munosabatda bo'lish hollari ham yo'q emas. Masalan, qonun chiqaruvchi hokimiyat tomonidan hukumatga qonun chiqarish vakolatining "uzatilishi", "o'tkazilishi" amaliyoti hokimiyatlar bo'linishi prinsipiga mos kelmaydi, degan fikr tarafdorlari mavjud.

Amerika prezidentiga qonunchilik vakolatlarining berilishi, ya'ni "uzatilgan qonunchilik", umuman olganda, "hokimiyatlar bo'linishi" nazariyasi mohiyat va mazmuniga rasman to'g'ri kelmaydi. Bundan tashqari "delegat o'z vakolatini boshqaga uzata olmaydi" degan qat'iy qoidaga ham bu holat mos tushmaydi. "Uzatiladigan qonunchilik" amaliyoti qonun chiqaruvchi hokimiyat bilan ijro etuvchi hokimiyat o'rtasidagi muvozanatning buzilishiga olib kelishi mumkin. Shu bois qator davlatlarda bu amaliyot bora-bora hokimiyatlar bo'linishi prinsipini yo'q qilib, oxir-oqibatda uni halokatga boshlashi mumkin. Biroq amerika hokimiyatlar bo'linishi tizimining eroziya jarayonini esa yuqori sud instansiyalari tiyib turishi mumkin [16, 249-b.].

Shu o'rinda parlamentlar tomonidan qabul qilinadigan qonunlar (statutlar) mazmuni, asosan, umumiy xarakterga ega bo'lishi, jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalarini umumiy tarzda mustahkamlashi, shu

bois undagi umumiy qoidalar, keyinchalik kengaytiradigan, aniqlashtiradigan va konkretlashtiradigan qonunosti aktlari qabul qilinishining obyektiv, tashkiliy-huquqiy zaruriyati mavjudligini e'tirof etmaslikning iloji yo'q.

Biroq bunday e'tirof, ya'ni ijro hokimiyati tomonidan qonunlarni bajarish yuzasidan, ularning ijrosini ta'minlash maqsadida olib boradigan cheklangan tarzda qonunosti aktlarini qabul qilish funksiyasini qonun yaratish, qonunchilik hokimiyatini amalga oshirish bilan tenglashtirishga asos bo'lib xizmat qilmaydi, albatta.

Shu sababli "uzatilgan qonunchilik" amaliyoti sharoitida qonun chiqaruvchi hokimiyat bilan ijro etuvchi hokimiyat o'rtasidagi vakolatlar muvozanati buzilmasligini ta'minlovchi mexanizmni takomillashtirish masalasini ilgari surish muhim. Bu ikki hokimiyat o'rtasidagi vakolatlar nisbatini to'g'ri doirada ushlab turish uchun ular ustidan olib boriladigan sud va parlament (yuqori palata) nazoratining shakl va usullarini kuchaytirish lozim.

Bundan tashqari, Jorj Fletcher AQSh misolida, hokimiyat tarmoqlari o'rtasida vakolatlar bo'linishida, ayniqsa, sud va qonun chiqaruvchi hokimiyat hamda sud va politsiya o'rtasida vujudga keladigan ayrim yurisdiksiyaviy nizolar va ularni amalda hal etishdagi qiyinchiliklar haqida mushohada etib, "Agar da sud hokimiyati qonun chiqaruvchining oddiy vakolatlariga aralashsa, eng yaxshi maqsadlar bilan harakat qiladigan sudlarga ta'na qilish uchun qanday asoslar keltirish o'rinli?" deb yozadi. Agar politsiya ijro etuvchi hokimiyatning vakili sifatida sud hokimiyati vakolatlariga aralashsa, uning hokimiyatlar o'rtasidagi odatiy kuchlar muvozanatini buzishi haqida nima deyish mumkin [21, 301-b.]?

Shu o'rinda hokimiyatlar bo'linishi prinsipini birinchi marta davlatchilik amaliyotida qo'llagan AQShda ham ushbu prinsipning amalga oshirilishi tarixan silliq kechmaganligini ko'rish mumkin. Jumladan, Eduard H. Levi o'zining "Some Aspects of Separation

of Powers” nomli maqolasida ijro hokimiyatining qonun chiqaruvchi hokimiyat tomonidan ajratilgan mablag'larni sarflashni to'xtatib qo'yish bo'yicha vakolatlari, qonun chiqaruvchi hokimiyatning ijro hokimiyatini tashqi xavfdan aholini himoyalash uchun harbiy kuchlardan foydalanish borasidagi vakolatini cheklash huquqi yuzasidan hamda ijro hokimiyatining qonun chiqaruvchi va sud hokimiyatidan ma'lumotlarni yashirish huquqi, shuningdek, sud hokimiyatining ushbu imtiyozga cheklov o'rnatish huquqi hamda qonun chiqaruvchi hokimiyatning ijro hokimiyatidan olgan hujjatlarni chop etish huquqi borasida nizolar borligini keltirib o'tgan [22].

Xulosalar

Hokimiyatlar bo'linishi nazariyasining shakllanishi va uning amaliyoti haqida ayrim nazariy-huquqiy masalalar tahlili asosida quyidagi nazariy xulosalarni ilgari surish maqsadga muvofiq:

- o'z manbasiga ko'ra, yaxlit va yagona bo'lgan davlat hokimiyatining tarmoqlarga bo'linishi (separation), ajratilishi (division) tarixiy zarurat sifatida vujudga kelib, o'tgan vaqt davomida muayyan rivojlanish, takomillashish va “mahkamlikka sinov” pallalarini boshdan kechirib kelmoqda. Bugungi kunda ushbu prinsip davlat hokimiyatini tashkil etishning nisbatan samarali usuli sifatida o'zini namoyon etmoqda;

- ilmiy manbalarda, olimlar va amaliyotchilar o'rtasida hokimiyatlar bo'linishi nazariyasi va prinsipining mazmuni, mohiyati va ahamiyati haqida fikrlar xilma-xilligi, ayrim hollarda hatto bir-biriga zid qarashlar mavjudligi milliy yuridik fanda ushbu masalada chuqur ilmiy tadqiqotlar zarurligini taqozo etadi;

- hokimiyatlar bo'linishi nazariyasi va prinsipi haqida fikr yuritganda, uning yaratilgan davri xususiyatlari, ayniqsa, o'sha paytdagi davlatchilik rivoji taqozo etganligi va u davr davlatchiligi bilan hozirgi zamonaviy davr davlatchiligini bir o'lchov bilan o'lchab bo'lmasligi, shu bois bu nazariyaga “ham-

ma davr uchun qat'iy o'rnatilgan talablar majmui” sifatida qarash besamar bo'lishini nazarda tutish zarur. Zero, bugungi kunda zamonaviy konstitutsiyaviy tizimlar qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati tarmoqlari tartib-taomillari mexanizmining ko'plab variantlarini o'zida mustahkamlab qo'yan. Oqibatda hokimiyatlar bo'linishi nazariyasi ko'p tomondan o'zining avvalgi “qat'iyligi va aqidaviy tozaligi”ni yo'qotgan. Shu bois bunday holatning inson huquqlari uchun keyingi oqibatlaridan xavotirlanib, yangitdan hokimiyatlar bo'linishini o'rnatgandan ko'ra, ijro hokimiyati va ma'muriy qarorlar ustidan shikoyat qilish tizimini tashkil etishni ma'qul ko'rishmoqda [1];

- hokimiyatlar bo'linishi prinsipi uni qo'llagan barcha davlatlarda bir xil shaklda bo'lishi kerak, degan fikr ham reallikdan biroz uzoq, fikrimizcha. Chunki har bir davlat o'z davlatchilik tarixi va tajribasi, mentaliteti, boshqaruv shakli, huquqiy va siyosiy madaniyati, demokratiyaning yetuklik darajasi kabi ko'plab omillar ta'sirida shakllangan o'ziga xos hodisa bo'lib, ushbu omillar hokimiyatlar bo'linishi prinsipining qay darajada real amalga oshirilishiga ta'sir etadi;

- hokimiyatlar bo'linishi, garchi demokratik davlatlar amaliyotida ikki asrdan ko'proq vaqt davomida joriy etib kelinayotgan, bugungi kunda bu mexanizm davlat boshqaruvining samaradorligini to'la ta'minlab kelmoqda, deb aytish qiyin bo'lsa-da, davlat hokimiyati samaradorligi hamda tarmoqlar o'rtasida hokimiy vakolatlarining maqbul muvozanatini ta'minlashning ishonchli mexanizmi sifatida o'zini namoyon etmoqda. Binobarin, hokimiyatlar muvozanati – bu doimo birdek turadigan va o'zgarmaydigan kategoriya emas, albatta. Bunga o'z vaqtida Monteskyo ham katta e'tibor qaratib, “hokimiyatni zarur hollarda uyg'unlashtirish, tartibga solish, tiyib qo'yish, harakatga keltirish, birontasiga boshqasini tiyib tura olishi uchun biroz turtki berish” kerakligini ta'kidlagan.

REFERENCES

1. Britannica ensiklopediyasi Available at: <https://www.britannica.com/topic/separation-of-powers>.2023
2. Waldron J. Separation of Powers in Thought and Practice, 54 *Boston College Law School Review*, 2013, p. 433. Available at: <http://lawdigitalcommons.bc.edu/bclr/vol54/iss2/2>
3. Turdiyev X. Parlament va hukumat munosabatlarining tashkiliy-huquqiy mexanizmini takomillashtirish masalalari [Issues of improving the organizational and legal mechanism of parliamentary and government relations]. PhD thesis. Tashkent, 2021.
4. Xakimov R.R. Davlat hokimiyati tarmoqlari o'rtasida muvozanatni ta'minlashning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish [Improvement of legal mechanisms for ensuring balance between branches of state power]. Abstract of DSs dissertation. Tashkent, 2018, p. 14.
5. Odilqoriyev X.T. Davlat hokimiyati va boshqaruvini modernizatsiya qilish: metodologiya, amaliyot va istiqbol [Modernization of state power and administration: methodology, practice and perspective]. *Actual Problems of State Building and Management*, Tashkent, TSUL, 2015, p. 16.
6. Pirova R.N. Doktrina razdeleniya vlastey: istoriya i sovremennost [The doctrine of separation of powers: history and modernity]. *Humanitarian, Socio-Economic and Natural Sciences*, 2015, p. 278.
7. Polibiy. Tarix [History]. Book 6, pp. 11–13.
8. *State and law*. 1997, no. 3, pp. 122–126.
9. Khramushin V.V. Vzaimodeystviye vetvey vlasti na regionalnom urovne [Interaction between branches of government at the regional level]. PhD thesis. Saratov, 1997.
10. Nersesyans V.S. Politicheskiye ucheniya Drevney Gretsii [Political doctrines of Ancient Greece]. Available at: <http://lawlibrary.ru/izdanie9748.html>
11. Daymond M. The Separation of Powers and the Mixed Regime. Dimensions of the Democratic Republic: A Memorial to Martin Diamond. *Summer*, 1978, vol. 8, no. 3, pp. 33–43.
12. Pakmomov V.G. Teoriya razdeleniya vlastey: diskussionnyye voprosy [The theory of separation of powers: controversial issues]. *Bulletin of the Ministry of Internal Affairs of the Russian Federation*, 2019, no. 2, pp. 53–61.
13. Lokk J. Dva traktata ob upravlenii [Two Treatises of Government]. Available at: https://www.civisbook.ru/files/File/Lokk_Traktaty_2.pdf
14. Monteskyo Sh. Izbrannyye proizvedeniya [Selected works]. Moscow, 1955, p. 290.
15. Kant I. O razdelenii vlastey [About the separation of powers]. Available at: <https://kant-online.ru/wp-content/uploads/2014/03/07.pdf>.
16. Marchenko M.N. Razdeleniye vlastey v gosudarstvennom mekhanizme [Separation of powers in the state mechanism]. *Problems of the Theory of State and Law*, Moscow, Yurist Publ., 2006, p. 226–227, 249.
17. Merrill T.W. The Constitutional Principle of Separation of Powers. The University of Chicago Press, pp. 225–260. Available at: <https://www.jstor.org/stable/3109603>
18. Pratt R.L. Alexander Hamilton: The separation of powers. *Public Affairs Quarterly*, University of Illinois Press, 1991, January, vol. 5, no. 1, pp. 101–115. Available at: <https://www.jstor.org/stable/40435772>
19. Fairlie J.A. The Separation of Powers. *Michigan Law Review*, Michigan Law Review Association, 1923, February, vol. 21, no. 4. pp. 393–436.
20. Ackerman B. The new separation of powers. *Harvard Law Review*, 2000, January, vol. 113, no. 3, pp. 633–729.
21. Fletcher G.P. The separation of powers: a critique of some utilitarian justifications. Pp. 299–324. Available at: <https://www.jstor.org/stable/24219141>
22. Levi E.H. Some Aspects of Separation of Powers. *Columbia Law Review*, pp. 371–391.

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI
ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК
REVIEW OF LAW SCIENCES

Huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

Правовой научно-практический журнал

Legal scientific-practical journal

2023-yil 4-son

VOLUME 7 / ISSUE 4 / 2023

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS.2023.7.4.

BOSH MUHARRIR:

Rustambekov Islambek Rustambekovich

Toshkent davlat yuridik universiteti rektori v.v.b., y.f.d.,
professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Xodjayev Baxshillo Kamolovich

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, y.f.d.,
professor

Mas'ul muharrir: O. Choriyev

Muharrirlar: Y. Yarmolik, F. Muhammadiyeva,
Y. Mahmudov, E. Mustafayev

Musahhih: M. Sharifova

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.
Tel.: (0371) 233-66-36 (1169)

Veb-sayt: review.tsul.uz

E-mail: reviewjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1385.

Jurnal 21.12.2023-yilda tipografiyaga
topshirildi. Qog'oz bichimi: A4.
Shartli 17,67 b.t. Adadi: 100. Buyurtma raqami: 127.
TDYU tipografiyasida chop etildi.